

O'ZBEK VA DUNYO TEATR-STUDIYALARINING SHAKLLANISHIDA STSENOGRAFIYANING O'RNI

Xoliqov Mirjalol Raxmatulla o'g'li

K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, o'qituvchi Da-vinchi9391@mail.ru +99890-009-93-79

Anotatsiya: Ushbu maqolada dunyoda va O'zbekistonda teatr-studiyalarining paydo bo'lgandan boshlab shakllanish bosqichlarida stsenografiyaning tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Dunyoda davlat teatrlarini hamda teatr-studiyalarida rivojlanishida, tomoshabinlarning teatr stsenografiyani anglashi uchun olib borilayotgan hamda qo'llanilgan uslublar haqida ham bir qancha fikrlar takidab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Teatr-studiyalari, uslublar, rejissyor, spektakl, makon, dekoratsiya, sahna, rekvizit, proyektor, zadnik, kulisa, parda, arxitektura.

Anotation: This article presents information about the role of scenography in the world and Uzbekistan at the stages of formation, starting with the emergence of theater-Studios. In the development of State theaters in the world, as well as in the theater-Studios, a number of ideas about the methods that are being carried out and applied to the audience for the realization of theatrical scenography are also taken into account.

Key words: Theater-Studios, styles, Director, performance, space, decor, stage, props, projector, zadnik, kulisa, curtain, architecture.

Stsenografiya yoki teatr dekorativ san'ati badiiy ijodning o'ziga xos turi hisoblanadi. "Stenografiya" atamasi spektaklning fazoviy echimini o'rganadigan dekorativ san'at va fanni ham anglatadi. "Stenograf" atamasi teatrdagi sahna dizayneri, sahna rassomi, texnologiy kabi kasblarni anglatadi. Stsenografiya - bu spektaklning fazoviy yechimining butun to'plami, vizual idrok qonunlariga muvofiq teatr sahna asari uchun yaratilgan sahnadagi barcha narsalardir.

"Stsenografiya" nafaqat rassomning sahnada yaratgan badiiy yaxlitlik yechimi (to'plamlar, kostyumlar, chiroqlar, rekvizitlar), balki aktyorlarning plastik imkoniyatlari hamdir. Bu sahnaning texnik xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi.

I Teatr-studiyalarida spektaklning sahna maydoni yorug'lik, rang, grafika, aktyorlar harakati, rekvizitlar, va har hil shakllar tufayli o'zgarib boradi. Makon jismoniy va dinamik o'zgarishsiz qolganda, bir vaqtning o'zida tasvirlangan narsaga sahna (makon)ni tashkil etuvchi tafsilotlar bilan qanday to'ldirishiga qarab badiiy idrokda o'zgaradi. Teatr-studiyalarida sahna maydoni yuqori to'yinganligi bilan ajralib turadi, deydi Y.Lotman.



Sahnaga tushgan har qanday narsaning to'g'ridan-to'g'ri ob'ektiv funksiyasi qo'shimcha ma'nolar bilan to'yinganlik tendensiyasiga ega bo'ladi. Teatr-studiyalarida harakat imo-ishora bilan amalga oshiriladi, ba'zida ushbu harakatlar stenografiyaning bir qismi bo'lib ham xizmat qiladi.

2Teatr-studiyalarida stsenograf sahna maydonini rejissyor va spektakl rejasiga hamda asar g'oyasiga muvofiq tashkil qiladi. Teatrda-studiyalarida makonlarni bir nechta turlarga ajratish mumkin: yopiq joy (qoida tariqasida, bu ichki makonni tasvirlaydigan dekoratsiyalarning pavilonini anglatadi), bu usuldagi makonlardan asosan davlat teatrlari foydalanadi, teatr-studiyalari ham bu usulda foydalanishadi, lekin ma'lum bir qoidalarga bo'y sunmagan holda foydalaniladi. Istiqbolli ravishda rivojlanayotgan teatr va teatr-studiyalari bugungi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda stenografiya yaratishda yangi talqindagi zadniklar (osma "pardalar") yordamida, rasm va grafik effektlarni simulyatsiya qilgan holda bir vaqtning o'zida asarda belgilangan maydonlarni bir nechta harakat joylarini ko'rsatish va ko'rinishlar yakunida ushbu osma pardalarni yuqoriga yo'naltirilgan holda boshqa makonni ifodalash imkoniyatiga ega bo'lib kelmoqda.

3Ma'lum bir makonga bog'liq bo'lmagan stsenografiya qisimlarini o'zaro bog'liqligi va ularda yorug'lik rangining massa nisbati taqsimlanishi sahna makonining umumiy plastikasi hamda holatini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

4Aktyorlarning plastik harakatlari teatr-studiyalarida sahna maydoni plastikasi bilan bilan o'zaro bog'liqdir. Teatrlarda ushbu komponentlarni badiiy yahlitligini taminlash yaratilayotgan spektaklning 50% yutug'ni belgilaydi.

Yigirmanchi asrdan boshlab odatiy sahna va odatiy o'rindiqlar o'rniga namoyishkorona zamonaviy texnologik inshootlar yaratila boshlandi. Bu esa nafaqat davlat teatrlarida, balki teatr-studiyalarida ham rejissyorlar, stsenograflar, kompozitorlar va aktyorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu tashlanayotgan dadil qadamlar teatr san'ati estetikasida yangi tendensiyalarini vujudga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

5Umumiy teatr maydonini tashkil etish; sahna maydonini tashkil etish; fazoviy munosabatlardagi aktyorlar ansamblini tashkil etish; spektaklning umumiy rang boyligini tashkil etish; sahna nuri hisobga olgan holda mezzanssenalar sahnalashtirish; spektaklning rang aniqligi hosil qilish; ranglarning o'zaro ta'siri kuchi va ta'sir etish maydonini aniqlash; stsenografik yechimlar qilishda sahna imkoniyatlari bilan ishlash; stsenografiya bilan aktyorlar uyg'unligini taminlash kabi tendensiyalar bugungi kundagi davlat teatrlari va teatr-studiyalarining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan komponentlar hisoblanadi.

6Rassom tomonidan yaratilgan stsenografik yechim va obrazlar spektaklda spektaklning asosiy mavzulari va motivlarini aniq aks ettira olishi dramatik mojaroning asosiy holatlarini, qahramonlarning salbiy kuchlarga qarshi turishi, uning ichki ma'naviy dunyosi qay darajada yuksaklikka erishganini tomoshabinga ko'rsata olish teatr-



studiyalarida asosiy tamoillardan biri hisoblanadi. Bu haqida D. Borovskiy, D. Lider, E. Kochergin, S. Barxin kabiy yetuk teatr arboblari ham takidlashgan.¹²

Kelajak stsenografiyasi O'tgan asrning boshlarida teatr rassomlarining izlanishlari va kashfiyotlari ko'p yillar davomida jahon teatrining rivojlanishini belgilab berdi. Sahna yorug'ligi sohasidagi dizayn va kashfiyotlar, lazer va kompyuter texnologiyalari, yangi materiallar va mexanizmlar o'nlab yillar oldin o'rnatilgan yo'nalishlarni rivojlantirdi. Yigirmanchi asrning boshlarida ishlagan stsenografiya arboblarning g'oyalari bugungi sahna rassomlariga tajriba o'tkazish uchun katta maktab bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Sahna transformatsiyasi¹³ iborasini sahna dizayni iborasi bilan belgilash mumkin.

Bu yerda rassomning asosiy vazifasi sahna harakati uchun makonni loyihalash va ushbu harakatning har bir lazasini moddiy-yorug'lik bilan ta'minlashdir.

Shu bilan birga, asl holatida, makon ko'pincha spektaklga nisbatan mutlaqo neytral ko'rinishi mumkin va unda sodir bo'layotgan voqealar vaqti va joyining haqiqiy belgilarini o'z ichiga olmaydi.

Shu usul bilan spektakl uchun yaratilgan makon va stsenografiya tomoshabinni asar haqida va yechim haqida mushohada qilishga undaydi.

1905 - yildan 1911 - yilgacha teatr studiyalarida shakllangan sahna arxitekturasi shundan iboratki, u tashqi yoki ichki makonni tasvirlamaydi; u hech narsani "tasvirlamaydi".

Bu esa arxitekturada g'oyaviy yechimlarni ifodalay boshladi.

Tomoshabin tushunish darajasi yuksalgani sari oddiy arxitekturaning yoki arxitektura fragmentlarining tasviriy tushunchasidan ko'ra g'oyaviy yechimga xizmat qilguvchi arxitekturaga bo'lgan extiyoj ortib bordi.

Sahna arxitekturasi, studiya sahnasida foydali arxitektura sifatida ishlaymaydi.

Siz bu devorlariga suyanolmaysiz, ular hech narsadan yashirmaydilar; uning arxitekturasi tabiiy sharoitda emas, balki teatr sharoitida paydo bo'ladi va harakat qiladi.

Shuning uchun, haqiqiy me'morchilikdan farqli o'laroq, bu ramz sifatida ishlatiladi. Ho'sh, ramz nima? Jismoniy va falsafiy kategoriya sifatida kosmosning o'zi ramz hisoblanadi.¹⁴

Studiya stsenografiyalarini shakllanishida makonni ramziy o'ziga xoslikning namunasi sifatida qabul qilinadi, sahnada cheksizlik va abadiylikning falsafiy toifalarining jismoniy va ramziy timsolini ko'rsatishga harakat qiladi.

Ramz makonni ruhiy holati va fikr harakatining ham sahnadagi ifodasidir, u ichki makon — tuzilishdir.

¹² "Театр Сергея Бархина" 21 августа] 2017 г.

¹³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Transformatsiya>

¹⁴(Antuandan Kreyggacha) SAHNA MAKONINING EVOLYUTSIYASI





Aynan shu sifat Kreg printsipli Stanislavskiyni ham o'ziga jalb qilgan.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO'YHATI:

1. Emile Zola. La naturalisme au theatre. Parij, 1881, 183-bet
2. Jan Vilar. Teatr an'analari haqida. M., 1956, 28-sahifa.
3. Avdeyev A.D., Proisxojdeniye teatra, M. — L., 1959;
4. Stan islavski y K. S, Sobr soch., t. 18, M., 1954-61;
5. Xorijiy teatr tarixi (ruschadan S. Tursunboyev tarjimasi), t. 1—2, T., 1997,1999
6. "Театр Сергея Бархина" 21 августа] 2017 г.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Transformatsiya>
8. Antuandan Kreyygacha SAHNA MAKONINING EVOLYUTSIYASI

